



Abu Rayhon Beruniy
 Xorazmning qadimiy poytaxti
 Kot (Kat) shahrida tug'ilgan.
 Yoshligidanoq ilm-fanga juda
 qiziqsan. Ayniqsa, matematika,
 astronomiya, geografiya va tabiiyot
 fanlariga doir ko'p risolalarni o'qib
 o'rgangan. Shu bilan birga qadimgi
 xorazm tilini, turkiy, fors va arab
 tillarini puxta o'rganib olgan. U 75 yil umr ko'rib, shu
 davr ichida ko'p kitob va risolalar yaratgan.



Abu Rayhon Beruniy

Pirmat Shermuhammedov

Bugun juma. Havo ochiq, osmon artilgan shisha
 singari tiniq, musaffo. Quyosh nayza bo'yli ko'tarilgan.
 Yigirma besh yoshlari chamasidagi o'rta bo'yli,
 bug'doyrang, xushqomat Abu Nasr bugun-erta
 sahardanoq o'z yordamchilari bilan qishloq chetidagi
 tepalik ustida usturlob o'rnatish bilan mashg'ul.

Bir mahal uning yoniga qoramag'iz, bo'z ko'ylak,
 bo'z ishton kiygan oyoq yalang bola kelib o'tirdi.
 Uning yuzi, ko'zi va chehrasida chuqr hayajon
 shundoqqina sezilib turardi.

– Yana keldingmi? – deydi Abu Nasr uni erkalagan
 ovozda.

- Keldim, – deydi bola hayajonini yashirmay.
- Menga yordamlashib yuborasanmi?
- Albatta! – Bola dadillanib unga tomon suriladi. –

Bu nima ustoz?

- Usturlob.
 - Usturlob deysizmi?
 - Men bu asbob bilan Quyosh va yulduzlar harakatini kuzataman.
 - Qanday qilib kuzatasiz? Kunduzi osmonda hech narsa ko'rinxaydi-ku!
 - Tunda kuzataman-da, – deydi Abu Nasr jilmayib.
 - Men ham kuzatsam bo'ladimi?
 - Sen hali yoshlik qilasan. Katta bo'lganingda hammasini bilib olasan.
 - Hozir bilgim kelyapti, ustoz.
 - Isming nima?
 - Muhammad.
 - Kimning o'g'lisan?
 - Otamning ismi Ahmad.
 - O'qish, yozishni bilasanmi?
 - Bilaman.
 - Nimalarga qiziqasan?
 - Har tunda osmon to'la yulduzlarni kuzataman.
- Biram yulduzlar bilan gaplashgim keladiki. Siz-chi?
Siz yulduzlarning tilini bilasizmi?
- Ha. Tushunaman.
 - Menga ham o'rgating.
 - O'rgataman.

- Aldamaysizmi?
- Aldamayman. Ammo bir shartim bor.
- Ayting.
- Men bilan shaharga ketasan.
- Xo‘p. Faqat ota-onam rozi bo‘larmikin?
- Otangga o‘zim tushuntiraman.

Shu kuni kechqurun Abu Nasr vaqt topib, qishloq chekkasidagi ko‘rimsiz bir hovliga kirib bordi...

- 
1. Asar qahramonlari kimlar?
 2. Usturlob haqida nima deya olasiz?
 3. Ahmad nimaga qiziqar ekan?
 4. Sizning qanday qiziqishlaringiz bor?



qoramag‘iz – qorachadan kelgan



Hikoyadan Abu Nasr va Muhammadning suhbatini o‘qing.
 Qahramonlarning tashqi ko‘rinishi tasvirlangan gaplarni topib o‘qing.
 Hikoya qahramonlariga ta’rif bering.
 “Nayza bo‘yi” iborasini izohlang.
 Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.
 Hikoyadagi voqealar rivojini davom ettiring.



Hikoyani rollarga bo‘lib o‘qing.